

EVFEMIZMLARNING SHAXS IJTIMOIIY MAQOMINI IFODALASHDAGI O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15202962>

Ro'zimatova Dilnoza Murodovna

O'z FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti

Tel: +99891 790-96-45

dilnozarozimatova05@mail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada tilshunoslikda ijtimoiy maqom tushunchasi, uning nutqda ifodalanishi yoritib berilgan. Evfemizmlarning shakllanish asoslari, ularning vazifalari, nutqda qanday sharoitlarda qo'llanilishi haqida ma'lumotlar berilgan. Evfemik ifoda vositalarini siyosiy-badiiy va siyosiy-majoziy turlari haqida qisqacha ma'lumot keltirilgan hamda badiiy asarlardan keltirilgan misollar yordamida dalillangan.

Kalit so'zlar

evfemizm, disfemizm, evfema, evfemik ifoda, evfemik vositalar, siyosiy-badiiy evfema, siyosiy-mafkuraviy evfemizm.

Tilshunoslikda evfemizm tushunchasi aytilishi uyat, odat tusiga kirmagan, eshitilishi qo'rqinchli, xavfli, noxush sanalgan narsa-hodisa nomlarini yoqimli, beozor, chiroyli ma'no-mazmun ifodalovchi so'z va iboralar bilan almashtirib qo'llashdir. Tilimizda muayyan bir fikrni bir qancha shakl-u shamoyilda ifodalash imkoniyati mavjud, aynan qaysi shakl-u shamoyilni tanlash, muloqot vaziyati uchun eng uyg'un ifodani topa bilish nutq egasining mahorat-u malakasi, ma'rifat-u ma'naviyatiga bog'liq[4:4]. Chunki har bir so'zni suhbatning sharoitiga, suhbatdoshning kimligiga qarab qo'llash yetuk so'zlovchining xususiyatlaridan biridir. Manbalarda tabulashgan, ya'ni taqiqlangan so'z doimo evfemizmlar bilan o'zgartiriladi degan fikrlar uchraydi [2:13]. Lekin evfemizmlarning shakllanish asoslariga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, ularning bshqa sabablar bilan ham qo'llanilishiga amin bo'lamiz.

Tabu va evfemizm hodisasining paydo bo'lish sabablari, ishlatilish maqsadlari haqida umumtilshunoslikda ham, turkologiyada ham, o'zbek tilshunosligida ham turli fikrlar mavjud. Jumladan, tilshunos P.A.Будагов tabuning paydo bo'lishiga insoniyatning e'tiqodi turtki bo'lganligini va ma'lum ma'noda tafakkur rivojining asosi ekanligini e'tirof etgan holda, evfemizm yuzaga kelishida muhim omil emas deb hisoblaydi. Chunki tabu boshqa sabablarga ko'ra vujudga kelgan. Evfemizm

esa nutqiy madaniyat yuzasidan aytish noqulay bo'lgan vaziyatni yumshatish uchun qo'llanadi. Masalan, aqlli bo'lmagan insonning ko'ngliga ozor bermaslik uchun u haqda *ne izobrezayet poroxa* deyilishini ta'kidlaydi [1:26].

O'zbek tilshunosligida bu masala dastlab monografik planda tilshunos N.Ismatullayev tomonidan o'rganilgan bo'lib, olim tabu va evfemizmgga doir boy ma'lumotlarni to'plagan, ularni umumlashtirgan, ilmiy xulosalar bergan. Ushbu ishda evfemizmlarning kelib chiqishi asosanib, ma'lum guruhlariga bo'lingan, tasniflangan. Bundan tashqari, turli ijtimoiy qatlam nutqida qo'llanadigan evfemizmlarning ahamiyati haqida ham fikrlar bildirgan [3:19].

Keyinchalik tilshunos A.Omonturdiyev ushbu hodisalarni keng planda tadqiq etgan holda, evfemizmlarning ma'no ko'lami, ularning tasvir obyekti, semantik tasnifi va ifoda usullari, uslubiy xususiyatlari haqida o'zining nomzodlik dissertatsiyasida evfemik ma'noning evolyutsiyasi, tasvir obyekti, semantik hamda funksional-uslubiy tasniflari kabi zarur ma'lumotlar berib o'tilgan [7:176]. Ushbu muallifning "Professional nutq evfemikasi" deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasida esa chorvadorlar nutqi misolida ma'lum kasb egalari nutqida qo'llaniladigan evfemik vositalar tadqiq qilingan. Shuningdek, ushbu ishda tabu va evfemikaning shakllanish asoslari, paydo bo'lish ehtiyojlari, evfemiyaning yondosh hodisalarga munosabati va evfemik ma'no mezon, chorvadorlar nutqidagi etnografik udumlar bilan bog'liq evfemik vositalar ham tadqiq etilgan [7:175]. X. Qodirova " Abdulla Qodiriyning evfemizmi va disfemizmdan foydalanish mahorati" nomli nomzodlik ishida evfemik va disfemik ma'noli birliklar talqini va tasnifiga alohida to'xtaladi. Shuningdek, adib asarlaridagi evfemizmlarni ma'lum guruhlariga ajratadi. Evfemik ma'noning qo'llanish xususiyatlari haqida to'xtaladi, evfemizmlarning shakl va ma'no turlari haqida ma'lumot beradi [4:23].

D.Rustamova esa evfemizatsiya, uning lingvomadaniy, sotsiopragmatik jihati haqida ma'lumotlar bergan. Shuningdek, metaforik evfemizatsiyaning turlari, uning kognitiv, sotsial va pragmatik aspekti haqida to'xtalib o'tgan [8:119].

A.Omonturdiyev tadqiqotida evfemizmlar shakllanishining diniy-mifologik dunyoqarash so'z magiyasi, nutqning etik-estetik talab normasi, siyosiy-mafkuraviy zaruriyat hamda so'zlovchining subyektiv ehtiyoj talablari kabi asoslari mavjudligi ta'kidlangan [7:220]. Suhbat jarayonida maqomi past bo'lgan so'zlovchi yuqori maqomga ega suhbatdoshi oldida unga aytilishi lozim bo'lgan fikrlarni pardalab, nazokat bilan yetkazishi lozim, bu yo'lda unga evfemizmlar yordam beradi. Bu yuqori mansabdor va uning qo'l ostidagi insonlar o'rtasidagi suhbatda, boy va undan kambag'alroq inson o'rtasidagi, oilada ota-ona bilan bolalar o'rtasidagi suhbatda kuzatiladi.

Muayyan voqea-hodisani aynan bayon etmaslik uchun axloq-odob talabi, xususan, nutq odobi, muloqot xulqi sabab bo'ladi. Badiiy asarlarda ham qahramonning saviyasi, dunyoqarashi, fiklashi so'z vositasida beriladi, uning qanchalik yuksak muloqot madaniyatiga ega ekanligi boshqalar bilan muloqotida ham aks etadi. Jamiyatda turli ijtimoiy maqomga ega bo'lgan insonlar nutqida ham evfemizmlarning uchrashi turli asoslarga ko'ra yuzaga keladi.

–Mayli, oqsoqol. Shoshadigan joyim yo'q mening. Qachonki safar ixtiyor etsam, ana, yo'lim o'ng, beminnat, shartta **yog'och otga** minib ketaveraman.

Oshnoning ensasi qotdi:

–**Plastinkaning narigi tarafini qo'ysak**, o'rtoq Yaxshiboyev! (M.M.Do'st. Lolazor)

Yuqoridagi suhbat ikki yuqori ijtimoiy maqomga ega bo'lgan insonlar o'rtasida kechmoqda, ular bolalaikdan yaqin do'st, bundan tashqari, so'zni yaxshi tushunadigan ziyoli qatlam vakillari. Birinchi gapda qo'llanilgan *yog'och ot* evfemasi tobut ma'nosini anglatishi ma'lum, uni o'z nomi bilan atash kishida qo'rquv uyg'otishidan tashqari, so'zlovchi ijodkor, shuning uchun so'zni aynan, ochiq qo'llamay, uni yuqoridagi ifoda orqali bermoqda. **Plastinkaning narigi tarafini qo'ysak** ifodasi esa jamiyatda suhbatdoshidan ham ko'ra yuqori maqomga ega bo'lgan, asarda ta'riflanishicha, birinchi rahbar tilidan aytilmoqda. Yuqoridagi birlikni qo'llash bilan so'zlovchi "*boshqa gaplarni gapiring*", "*suhbat mavzusini o'zgartiring*" degan fikrini boshqacha ifoda bilan beryapti. Ushbu holatda suhbatdoshdan boshqa bir amaldor yoki oddiy inson bo'lganda ochiqdan ochiq fikr aytishi mumkin edi, lekin suhbatdoshi uning yaqin do'sti, uning bu mansabga kelishida uning ham ozmi-ko'pmi hissasi bor, har qancha yuqori maqomga ega bo'lmasin bir so'z bilan do'stining qalbiga ozor yetkazib qo'ymaslik maqsadida ushbu evfemik birlikni qo'llashni ma'qul topgan.

Nutqning etik talablariga rioya qilish dono suhbatdoshning maqsadlaridan biridir. Fikrni suhbatdoshga qanchalik chiroyli tarzda yetkaza bilish ham so'zlovchidan alohida mahorat talab qiladi.

Yaxshiboyevning o'zi endilikda bu latifani aytmaydi hisob. O'zi aytib og'zi kuygan. Odam qurib qolganday, kelib-kelib Oshnoga aytibdi-ya!.. Oshno avvaliga odob bilan eshitdi, hattoki iljaydi, qiqirlab kuldi, so'ng birdan qovoq uyib: –**Gaplaringizdan atir hidi kelmaydi**, o'rtoq Yaxshiboyev, – dedi. Qaytaga, Oshno lutf qilmasdan gaplaring buncha sassiq, deb aytsa ming bora tuzukroq bo'lardi. Lekin Oshno o'lguday odobli odam, odobliki, jigaringni ezadi!..

Ushbu parchada so'zlovchi "*gaplaringizdan atir hidi kelmaydi*" birligi orqali gaplaringizda bemaza ma'no bor, yoshingizga, mavqeyingizga xos gapiring", demoqchi. U yuqori martabali, so'zni yaxshi tushunadigan odam, buning o'rniga ifodani ochiq

bayon qilishi ham mumkin edi, bunga tinglovchining ham jamiyatlardagi maqomi, soʻz bilimdoni ekanligi hamda suhbatdoshning bolalikdagi doʻsti ekanligi kabi omillar toʻsqinlik qilgan.

Suhbat davomida evfemizmlardan foydalanish, yuqorida taʼkidlaganimizdek, soʻzlovchining yuksak soʻz tanlash mahorati borligidan dalolat. Gohida suhbatdoshni ranjitib qoʻymaslik, uning dilini ogʻritmaslik maqsadida, shuningdek, uning yuqori maqomi ham soʻzni tanlab ishlatishni taqozo qiladi. Suhbat jarayonida muloqot muhiti, vaziyati hamda nutq madaniyati evfemizm qoʻllashga asos boʻla oladi.

Zohid sal ikkilanibroq turdi, soʻng koʻzlarini yumib tasdiqlagan boʻldi, soʻng chap koʻzini qisibroq butkul sunʼiy, oʻziga yarashmaydigan shangʻi ovozda kuldi:

– *Manavinisi – Yaxshiboyev kursida turgan byustga ishora qildi – anavinisiga **ilova ekan-da**, yaʼnikim minora suvratiga ?*

– *Shunday deyishingizni bilardim, – dedi Zohid ogʻrinib*

Parchada qoʻllanilgan “ilova” soʻzi matn mazmunidan kelib chiqadigan boʻlsak, “men uchun ishlangan haykalcha mendan yuqori martabaga ega boʻlgan doʻstim uchun ishlangani oldida oddiy buyum ekan, mendan foydalanib, undan biror narsa taʼma qilmoqchimisan?” degan maʼnoda qoʻllanilgan. Suhbat davomida uni keyinchalik qahramon “pora” deb ham qoʻllagan. Fikrni bu tarzda berish uni bu joyda ochiq aytib boʻlmaganligi, suhbatdosh ham respublika miqyosidagi mashhur shaxs ekanligi, uni ranjitib qoʻymaslik uchun ham dono soʻzlovchi tomonidan muloqot madaniyatiga rioya qilgan holda topib ishlatilgan.

Suhbat davomida nutqiy etiket talablariga rioya qilish uning mazmunli, samarali oʻtishiga yordam beradi. Evfemizmlar ham nutq sharoitiga, suhbatdoshning jamiyatlardagi mavqeyiga qarab qoʻllanilsa, suhbatdan koʻzlangan maqsadga yetish mumkin boʻladi.

– *Ahvolingiz ogʻir ekan, ukajon.*

– *Sekinroq aytasiz, Nazar aka! Yoshulli-makkor, meni ezib tashlashi mumkin... Shunga atay sizga **sigʻinib keldim**...*

– *...Birinchidan, men avliyo emasman toki siz sigʻinib kelsangiz...*

Parchada keltirilgan “sigʻinib keldim” aslida “menga yordam kerak, sizning qoʻlingizdan kelmaydigan ish yoʻq” maʼnosida qoʻllanilyapti. Soʻzlovchi bu gapni oʻzidan yuqori maqomga ega boʻlgan inson oldida toʻgʻridan toʻgʻri aytolmaydi, chunki u jamiyatda yuksak martabaga ega boʻlgan inson bilan qadrdon, ham mamlakatdagi taniqli inson, uning maqomi baland, oshkor aytishga suhbatdoshda hayiqish bor, shu sababli fikrini yashirinroq, ifodalibroq soʻz orqali yetkamoqda. Bundan tashqari, yuqoridagi fikrni ochiq aytish suhbat boʻlayotgan joyda xavfli, nutq oʻrni uni ochiq ishlatishni taqozo qilmaydi.

–*Deputatskiydaman, ustoz, biletim bor edi, qarab o'tirolmadim, gunohim juda og'ir, lekin bir kun yuvarman, oqsoqol?*

–*Ketsangiz biryo'la anavi "elchi" niyam o'zingiz bilan opketing, ukajon!*

Ushbu parchada "gunohim juda og'ir", gapi "sizga nisbatan hurmatsizlik qildim" ning o'rniga ishlatilyapti. "Bir kun yuvarman" esa aybim bor edi, meni kechirasiz" ma'nosida ta'sirliroq ifoda orqali berilyapti. Ushbu nutqdan yuqoridagi ta'sirli birliklar tobe inson nutqida ishlatilayotganini matn mazmunidan farqlash qiyin emas. Evfemizmlar nutqda so'z, maqol, ibora gohida gap shaklida berilishi mumkin. Asarlarda o'ng'aysizroq fikrni barqaror birliklar orqali ifodalash holatlari ham uchrab turadi:

O'ylanib yurdi o'shanda Oshno degani. Oshno o'ylanib yurib, dardini Yaxshiboyevga yordi: – **Men nima deyman-u qo'bizim nima deydi?**

– Sal kengashib ish tutilsa, ma'qul edi, oqsoqol. O'rningizda men bo'lsam, rosti, **qutquga** uchmasdim.

– Shu-chun ham mening joyimda emassiz, o'rtoq Yaxshiboyev!

– Endi, oqsoqol, joyimizni o'zimiz ham bilamiz, ishqilib, **poygakdan quvilmasak bo'ldi.**

Yuqoridagi parchada berqaror birikma aslida "Men biror fikr aytolmadim, sen nima deya olarding, sen mendan mayda odamsan-ku" degan ma'noda fikrni sal yumshatish uchun qo'llamoqda. *Qutqu* so'zi esa "ig'vo", "teskari tashviqot" ma'nolarining silliqlashgan varianti hisoblanib, so'zlovchi yuqori mavqe egasiga fikrini to'g'ridan to'g'ri ifodalashga betlamay, shu so'zni qo'llashga ehtiyoj sezgan. "Poygakdan quvilmasak bo'lgani" deb, o'zining suhbatdoshdan ancha past maqomda ekanligi, uning "sharofat"i bilan shu obro', mavqedan ham mosuvo bo'lishi mumkinligini pardalab izohlayapti.

Evfemizmlarning qo'llanishi siyosiy-mafkuraviy zaruriyat tufayli yuzaga kelishi mumkinligi haqida A.Omonturdiyev o'z tadqiqotlarida ma'lumot bergan. "Jamiyatda muayyan bir siyosiy-ijtimoiy davr yoki uning o'zgarishi bilan bog'liq yangi axloqiy-falsafiy g'oyalar shakllanadi. Ana shu zaruriyat yangi-yangi nutqiy ifoda vositalarining paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bunday ifoda vositalari ko'proq publitsistik uslub orqali namoyon bo'ladi. Biroq siyosiy-publitsistik uslubda har qanday tanqidiy yoki g'ayrisiyosiy, g'ayrimafkuraviy tushuncha yoki voqeliklar hamma vaqt ham aniq-oshkor tasvirlab bo'lmaganidan ba'zan ular evfemalashtiriladi – "yumshoq", "yopiq", "pardali" tarzda ifodalashga harakat qilinadi. Bunday evfemik ifoda vositalarini **siyosiy-badiiy** va **siyosiy-majoziy** evfema deb atash mumkin" [7:52]. Siyosiy voqeliklarni evfemalashtirish jarayoni, ya'ni tasvirning evfemik-publitsistik usuli o'zbek adabiyotida, xususan, ulug' adiblar nutqida ham o'z ifodasini topgan. Evfemizmlarning qo'llanilishi ijtimoiy-

siyosiy xoslanganligi bilan xarakterlanadi. Har bi ijtimoiy tuzumda evfemizatsiya hodisasi davrning mafkuraviy manzarasi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bog 'liq ravishda kechadi [8:40].

L.P.Krisin diplomat va siyosatchilar muloqot jarayonida to'g'ridan to'g'ri nomlab bo'lmaydigan so'zlarni etiket doirasida qo'llash ehtiyoji tufayli evfemizmlar yuzaga kelishini ta'kidlagan edi [5:82].

*Jiddiyoq bo'ling, Nazar Yaxshiboyevich! – noxos do'q urdi Shoymardonov. – Erta-indin **olamni suv oladi**, bitta **kemaga** tushaylik, deb atay yordam qo'lini cho'zgapman*

– ***Darg 'a** o'sha-o 'shami? – dedi Yaxshiboyev mensimay. – Yoki siz laganga soladigan boshqa birovning ketini mo'ljalga olib ulgurdingizmi?*

– ***Darg'a** o'sha-yu, lekin kema qo'ldan ketgan, Nazar Yaxshiboyev!*

Yuqoridagi parchada mamlakat ahamiyatidagi ikki shaxsning telefon orqali qilingan suhbat berilgan. Telefonda gaplashishni ham o'z qonun-qoidalari mavjudligi, suhbatdoshlar davlat ahamiyatiga doir mavzu yuzasidan, yuqori martabali shaxs haqida fikrlashayotgan bir paytda siyosatchining ismini ochiq atamay, o'rniga *darg'a* so'zidan foydalanishmoqda. Bu so'z aslida "kema boshqaruvchisi" ma'nosini anglatadi, ko'chma ma'noda esa rahbar, yo'lboshchi, yetakchi ma'nolarida ishlatiladi. *Kema* esa uning boshqaruvidagi mamlakat ma'nosida, *olamni suv bossa* siyosat o'zgarib hokimiyat almashib ketgan taqdirda hamfikir bo'lib, bir-birimizga dushman tomon bo'lib qolmaylik degan ma'noda qo'llanilgan.

Davr, siyosat, tuzum o'zgarishi yangi nutqiy birliklar ham yuzaga kelishiga sabab bo'ladi, shu sababli siyosatga doxil shaxslar ismini ham umumaxloqiy va madaniylik nuqtayi nazaridan ochiq ifodalamay, uning o'rniga boshqa so'zlarni qo'llash yangi birliklarning yuzaga kelishiga yoki mavjudlarining yangi ma'no va mazmun kasb etishiga sabab bo'lishi mumkin. Bular, yuqorida ta'kidlanganidek, siyosiy-publitsistik yoki badiiy uslubda ham o'sha tarixiy davr taqozosiga ko'ra o'z aksini topadi

Bu yog'i rosmi xushomadning o'zginasi, Nazar aka. Ojizligimni sizga sezdirmasligim kerak edi, lekin – nachora... Haykal yolg'iz emas...

–*Ikki nusxami?*

–*Butunlay boshqa nusxa...*

–***Kattaning** haykalimi?*

–***Minoraning** suvratidan bittasini opkeluvdim, ustoz...*

Yaxshiboyev uning ahvolini tushundi – keyingi so'zlar devorlarning qulog'iga aytilyapti, toki devorlar keyinchalik tilga kurguday bo'lsa, yolg'on guvohlik bersin.

Yuqoridagi parchada siyosatga aloqador ikki shaxs suhbat berilgan. Bu yerda qo'llanilgan *katta* so'zi mafkuraviy ehtiyoj talabi bilan aytilishi lozim bo'lmagan

insonning yashirin tarzda metonimik ma'no ko'chish yo'li bilan hosil qilingan nomidir. Chunki sobiq tuzum yillarida ayrim siyosatdonlarning ismlari o'rniga zamon talabi bilan tabulashtirila boshlandi. Ularning nomlari o'rniga *katta, katta boshliq, birinchi, dohiy, jahon proletariyatining dohiysi, yo'l boshchimiz, xalqlar otasi, Moskvadagi oqsoqolimiz, mamlakatimiz rahbari, o'zbek paxtakorlarining otasi, aziz mehmon, yuqori darajali mehmon, hurmatli, otamiz, hammamiz uchun hurmatli* kabi evfemik birliklar qo'llanila boshlagan. Yuqoridagi kabi so'zlar siyosat o'zgarishi bilan disfemalashib, kinoya, kesatq ma'nolarida qo'shtirnoq ichida qo'llanilganligiga ayrim asarlardan xabar topishimiz mumkin. Matndagi keltirilgan yuqoridagi so'z suhbat jarayoni kechayotgan joyda aytilishi lozim emas, chunki vaziyat buni taqozo qilmaydi, shuning uchun bu tarzda berilmoqda. "*Minora*" so'zi ham yuqorida ismi-sharifi aytilishi lozim bo'lmagan shaxsning suhbat jarayonida o'ylab topilgan, metaforik yo'l bilan hosil qilingan ko'chma ma'nodagi nomi hisoblanib, yuqorida ta'kidlanganidek, suhbat o'rni uning ismini tilga olishni taqiqlab turibdi.

Gohida mamlakat ahamiyatiga molik masalalar ham mashhur insonlar nutqida zamon talabi, qolaversa, boshqalar tushunmasliklari, jamiyatdagi obro'siga biror ziyon yetkazilishidan qo'rqib, o'z holicha ifodalanmaydi

- *Ijod yo'q hisobi...*
- *Unda xotira yozing, haligi... memuar deganday...*
- *Xotira yozgali cho 'chiyman. **Umrimizda ko'p voqealarga guvoh bo'ldik**, hammasini ham yozib bo'larmikan?*

– *Ana xolos! Yana ta'na qilyapsiz, do'stim!.. Yozavering, o'rtoq Yaxshiboyev, **kerak bo'lsa, o'zimiz zarur tuzatishlarni kiritamiz**.*

Yuqorida ikki yuqori maqomdagi shaxs suhbat berilgan bo'lib, suhbatdosh "*Umrimizda ko'p voqealarga guvoh bo'ldik*" gapini keltirish bilan aslida kinoyali tarzda "*Ko'p sirlarni bilaman, ularni oshkor qilsam, senga ziyon bo'lib qolmaydimi?*" degan fikrni keltirmoqchi bo'ladi. Bunga javoban undan ham yuqori lavozimdagi shaxsning "*kerak bo'lsa, o'zimiz zarur tuzatishlarni kiritamiz*" gapi "*Hamma yozganlaring ham mening ruxsatimsiz, ko'rsatmamsiz chop etilavermaydi, siyosatga, menga oid har bir ish nazoratimsiz bosilmaydi*" demoqchi bo'ladi. Asarlarda evfemizmlarni siyosiy-mafkuraviy ehtiyoj tufayli qo'llash ko'proq publitsistik uslubda, keyinchalik esa ijodkorlar asarlarida ham avj ola boshladi.

Evfemizmlarning qo'llanilish asoslari turlicha bo'lgani holda, biz ushbu qismda ularning faqat nutqiy etiket hamda siyosiy-mafkuraviy talab bilan qo'llanilgan turlariga e'tibor qaratdik. Nutqiy jarayonda so'zlovchi va tinglovchining ijtimoiy maqomi hisobga olingan holda ishlatiladigan evfemizmlar ko'proq yuqoridagi talab yuzasidan bunyodga keladi. Suhbat jarayonida

suhbatdoshlarga mos evfemizmalrni qo'llash so'zlovchining dunyoqarashi, madaniyati, so'z qo'llash mahoratiga bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Будагов Р.А. Введение в науку о языке. – М.:Индрик, 2003.– С.136
- 2.Гулямова Ш.К. Ўзбек тили эфемизмларининг гендер хусусиятлари. Филол. Фан. б. фалс. д-и (PhD) ...дисс. – Бухоро, 2020. – 149 б.
- 3.Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: Автореф. дисс...канд. филол. наук.– Т., 1963. –С.19.
- 4.Кадирова Х.Б. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати. Автореф. Фил.фан.номз. ...дисс. – Тошкент, 2012. – Б.152.
- 5.Крысин Л.П. Эвфемистические способы выражения в современном русском языке / Русский язык в школе.–М., 1994. – № 5. – С. 76-82.
- 6.Махмудов Н. Тил. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – 40 б.
- 7.Омонтурдиев А. Ж. Профессионал нутқ эвфемикаси. Филол. фан. д-ри. ...дисс. –Тошкент, 2009. –152б.
- 8.Рустамова Д. Метафорик эвфемизациянинг лингвокультурологик ва социопрагматик аспектлари: Филол. фан. б. фалс. д-ри ... дисс. автореф. – Фарғона, 2017. – 26 б